

Uzbekistan Airways Qarshi shahrida sayyor qabul o'tkazdi

2024 28 Noyabr

27-noyabr kuni Qarshi shahrida Uzbekistan Airways rahbariyati sayyor qabul o'tkazdi. Ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan tadbir davomida mahalliy aholi va sayyohlik agentliklari vakillari aviakompaniya faoliyati va kelgusi rejalar haqida to'g'ridan-to'g'ri savollar berish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ishtirokchilar joriy va yangi aviaqatnovlar, marshrut tarmog'ini kengaytirish istiqbollari, aviaqatnovlar va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan tashabbuslar bilan tanishdilar.

Toshkent – Qarshi – Toshkent yo'nalishiga alohida e'tibor qaratildi. 30-noyabrdan boshlab Silk Avia ushbu yo'nalishdagi parvozlar sonini haftasiga 10 tagacha oshiradi, bu esa hududga tashrif buyurishni yanada qulayroq bo'lishini ta'minlaydi.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Qarshi shahridan Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Parvozlar jadvali bilan tanishish va aviachiptalarni booking.uzairways.com sayti, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.

DILADI.
IRZUYEV

UZBEKISTAN
AIRWAYS







